



TOSHKENT VILOYATI STATISTIKA BOSHQARMASI


**Toshkent viloyatida
kichik tadbirkorlik
2021- yil yanvar-iyun**

Dastlabki ma'lumotlar


Toshkent viloyatida kichik tadbirkorlik




Yanvar-iyun oylarida kichik tadbirkorlik subyektlarining YaHMDagi ulushi, % da



2019- yil



2020- yil



2021- yil

2021- yilning yanvar-iyunida kichik tadbirkorlik subyektlarining YaHMDagi ulushi **47,1 %** ni tashkil etdi.

Kichik tadbirkorlik subyektlarining soni har 1000 aholiga **18,4** birlikni tashkil qildi.

2021- yilning yanvar-iyunida **4580** ta yangi kichik korxonalar va mikrofirmalar (fermer va dehqon xo'jaliklarisiz) tashkil qilindi, bu o'tgan yilning shu davriga nisbatan **14,8** foizga ko'p demakdir.

2021- yilning yanvar-iyun oylarida yangi tashkil etilgan kichik korxonalar va mikrofirmalarning iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha ulushi, % da

Savdo



Sanoat



Qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi



Yashash va ovqatlanishda



Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha eng ko'p kichik korxonalar va mikrofirmalar savdoda **1602** ta, sanoatda **917** ta, qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligida **661** ta, yashash va ovqatlanishda **377** ta, qurilish **330** ta, tashish va saqlash **128** ta tashkil etilgan.

Kichik tadbirkorlik subyektlarining asosiy iqtisodiy ko'rsatkichlari

2021- yilning yanvar-iyunida kichik tadbirkorlik subyektlarining iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha ulushi, % da

Sanoat 19,2



Qurilish 79,0



Investitsiya 39,6



Savdo 83,2



Xizmatlar 69,2



Eksport 24,1



Import 39,2



Faoliyat yuritayotgan kichik korxonalar va mikrofirmalar soni

43 382




Yangi tashkil etilgan kichik korxonalar va mikrofirmalar soni

4 580

2021- yilning yanvar-iyunida faoliyat yuritayotgan va yangi tashkil etilgan kichik korxonalar va mikrofirmalar, birlikda

Yanvar-iyun oylarida kichik tadbirkorlikning asosiy ko'rsatkichlari, % da



Faoliyat yuritayotgan kichik korxonalar va mikrofirmalar



2021- yil yanvar-iyunida iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha faoliyat yuritayotgan kichik korxonalar va mikrofirmalar, % da

Savdo

35,0%



Sanoat

20,0%



Qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi

14,4%



Qurilish

7,2%



Yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar

8,2%



Tashish va saqlash

2,8%



Axborot va aloqa

1,7%




Sog'likni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish

1,7%




Boshqa faoliyat turlari

9,0%



Yanvar-iyun oylarida faoliyat yuritayotgan kichik korxonalar va mikrofirmalar soni, birlikda

Hududlar bo'yicha yanvar-iyun oylarida faoliyat yuritayotgan kichik korxonalar va mikrofirmalar soni, birlikda




■ 2020- y.

■ 2021- y.

Yangi tashkil etilgan kichik korxonalar va mikrofirmalar



Hududlar bo'yicha yanvar-iyun oylarida yangi tashkil etilgan kichik korxonalar va mikrofirmalar, birlikda




■ 2020 y. yanvar-iyun

■ 2021 y. yanvar-iyun

2021- yil yanvar-iyun oylarida yangi tashkil etilgan kichik korxonalar va mikrofirmalarning hududlar bo'yicha ulushi, % da


2021- yilning yanvar-iyun oylarida hududlar bo'yicha yangi tashkil etilgan kichik korxonalar va mikrofirmalarning jamiga nisbatan eng ko'p ulushi Zangiota – 9,1 %, Qibray – 8,8 %, Toshkent – 6,8 %, O'rta Chirchiq – 6,0 %, Bo'stonliq – 5,9 %, Angren - 5,1 %, Chirchiq - 5,0 % hissalariga to'g'ri keldi.





Yangi tashkil etilgan kichik korxonalar va mikrofirmalar

Yanvar-iyun oylarida iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha yangi tashkil etilgan kichik korxonalar va mikrofirmalar, birlikda



Ma'lumot uchun: 2021- yilning yanvar-iyunida iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha yangi tashkil etilgan kichik korxonalar va mikrofirmalarning eng ko'p salmog'i, birlikda:


Savdoda
1602 ta

Sanoatda
917 ta

Qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligida
661 ta

Yashash va ovqatlanishda
377 ta

Yangi tashkil etilgan korxonalar bo'yicha eng yuqori ko'rsatkichga ega bo'lgan shahar va tumanlar, birlikda



Kichik tadbirkorlik subyektlari faoliyati haqida



2021- yil yanvar-iyun oylarida faoliyat yuritayotgan kichik tadbirkorlik subyektlarining soni har 1000 aholiga nisbatan 18,4 birlikni tashkil etdi.



Toshkent viloyatida faoliyat yuritayotgan kichik tadbirkorlik subyektlarining soni (har 1000 aholiga, birlikda), yanvar-iyun holatiga ko'ra*

2020- y.




2021- y.



2021- yilning yanvar-iyunida kichik tadbirkorlik subyektlarining soni har 1000 aholiga bo'yicha eng yuqori ko'rsatkich Ohangaron shahrida 28,4 birlik, Zangiota tumanida 27,9 birlik, Parkent tumanida 24,5 birlik, Nurfashon shahrida 23,4 birlik, Qibray tumanida 22,8 birlikni tashkil etgan.

2021– yilning yanvar-iyunida hududlar bo'yicha faoliyat yuritayotgan kichik tadbirkorlik subyektlarining soni (har 1000 aholiga, birlikda)*



Kichik tadbirkorlik subyektlari faoliyati haqida

Toshkent viloyatida faoliyat yuritayotgan kichik tadbirkorlik subyektlarining soni (har 1000 aholiga, birlikda), 2021- yil yanvar-iyun holatiga ko'ra*


Eng yuqori ko'rsatkich
Ohangaron shahar – 28,4 birlik.

O'rtacha ko'rsatkich
Toshkent tumani – 19,4 birlik.

Past ko'rsatkich
Chinoz tumani – 12,4 birlik.


2021- yilning yanvar-iyunida kichik tadbirkorlik subyektlarining soni har 1000 aholiga tuman va shaharlar bo'yicha eng yuqori ko'rsatkich Ohangaron shahrida 28,4 birlik, Zangiota tumanida 27,9 birlik, Parkent tumanida 24,5 birlik, Nurafshon shahrida 23,4 birlik, Qibray tumanida 22,8 birlikni tashkil etgan.

2021- yilning yanvar-iyunida har 1000 aholiga to'g'ri keladigan tadbirkorlik subyektlari sonini eng ko'p tashkil etgan shahar va tumanlar, birlikda *



* Kichik korxonalar va mikrofirmalar (fermer va dehqon xo'jaliklarini qo'shgan holda)

Kichik tadbirkorlik subyektlarining YaHMDagi ulushi



2019- y. 2020- y. 2021- y.

Yanvar-iyun oylarida kichik tadbirkorlik
subyektlarining YaHMDagi ulushi, % da


2021- yilning yanvar-iyunida kichik tadbirkorlikning YaHMDagi ulushi **41,8** % ni tashkil qildi. (2020- yilning yanvar-iyunida **42,0** %).

2021- yilning yanvar-iyunida kichik tadbirkorlikning hududlar kesimida iqtisodiyotning asosiy tarmoqlaridagi ulushi, (%) da

	Sanoat	Qurilish	Savdo	Investitsiya
Toshkent viloyati	16,2	80,0	78,9	51,2
Nurafshon sh.	16,7	99,5	39,1	12,5
Olmaliq sh.	1,3	68,8	86,1	3,0
Angren sh.	14,9	85,6	78,1	51,7
Ohangaron sh.	29,3	97,7	92,4	62,4
Bekobod sh.	1,5	94,6	79,4	85,4
Chirchiq sh.	17,0	87,5	73,9	16,8
Yangiyo'l sh.	40,6	91,3	96,1	75,7
Oqqo'rg'on t.	40,8	99,3	98,3	
Ohangaron t.	57,8	76,7	91,9	97,2
Bekobod t.	9,1	94,3	97,1	80,1
Bo'stonliq t.	17,0	90,9	58,9	94,4
Bo'ka t.	12,0	99,5	97,6	35,6
Zangiota t.	22,9	51,2	68,7	93,4
Qibray t.	18,1	63,7	88,1	52,1
Quy Chirchiq t.	39,7	98,5	98,2	83,3
Parkent t.	37,2	90,8	97,9	90,6
Piskent t.	11,0	99,1	95,5	85,9
O'rta Chirchiq t.	43,8	96,9	86,6	91,7
Chinoz t.	32,9	97,7	72,0	73,1
Yuqori Chirchiq t.	52,7	69,8	96,3	94,0
Toshkent t.	56,0	98,4	75,2	97,0
Yangiyo'l t.	40,9	86,1	94,1	95,9


Kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan amalga oshirilgan mahsulotlar (ishlar va xizmatlar) eksporti

2021- yil yanvar-iyun oylarida kichik biznes subyektlari mahsulot (ishlar va xizmatlar) eksporti hajmi 44,5 million AQSh dollarini yoki umumiy eksport hajmining 21,4 % ini tashkil etdi.




Yanvar-iyun oylarida kichik tadbirkorlik subyektlarining jami eksportdagi ulushi

2021 yilning yanvar-iyunida kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan amalga oshirilgan mahsulot (ishlar va xizmatlar) eksportining jami eksportdagi ulushi, % da



2021- yil yanvar-iyun oylarida hududlar bo'yicha kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan amalga oshirilgan mahsulot (ishlar va xizmatlar) eksportining jamiga nisbatan eng ko'p ulushi Parkent tumanida – 100,0 %, Ohangaron tumanida- 99,8 %, Quyri Chirchiq tumanida 99,8 %, O'rta Chirchiq tumanida – 99,4 %, Bo'ka tumanida – 93,9 % va Bekobod tumanida– 89,9 %ni, eng past ko'rsatkich Olmaliq shahrida – 0,6 % ni tashkil etdi.

Kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan amalga oshirilgan mahsulotlar (ishlar va xizmatlar) importi




Yanvar-iyun oylarida kichik tadbirkorlik subyektlarining jami importdagi ulushi

2021- yil yanvar-iyun oylarida kichik biznes subyektlari mahsulot (ishlar va xizmatlar) importining hajmi **205,1** million AQSh dollarini yoki umumiy importning **35,6 %** ini tashkil etdi.



2021 yilning yanvar-iyunida kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan amalga oshirilgan mahsulotlar (ishlar va xizmatlar) importining jami importdagi ulushi, % da




2021- yil yanvar-iyun oylarida hududlar bo'yicha kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan amalga oshirilgan mahsulotlar (ishlar va xizmatlar) importining jamiga nisbatan eng yuqori ulushi Bo'ka tumanida – 100,0 %, Bekobod tumanida – 100,0 %, Parkent tumanida – 100,0 %, Yangiyo'l shaharda – 96,0 %, Yuqori Chirchiq tumanida – 93,2 %. Eng past ko'rsatkich Bekobod shahrida – 1,2 % ni tashkil etdi.

Kichik tadbirkorlik subyektlarining sanoatdagi faoliyati




2021- yilning yanvar-iyunida hududlar bo'yicha kichik tadbirkorlik (biznes)da sanoat mahsuloti ishlab chiqarish hajmi

2021- yil yanvar-iyun oylarida kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan **4691,5** milliard so'mlik sanoat mahsulotlari ishlab chiqarildi.



Hududlar kesimida kichik tadbirkorlik subyektlarining eng ko'p sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish hajmi Zangiota tumani (576,8 mlrd. so'm), Ohangaron shahar (456,7 mlrd. so'm), Toshkent tumani (442,4 mlrd. so'm), Chirchiq shahri (426,2 mlrd. so'm) va Qibray tumani (403,5 mlrd. so'm) hissasiga to'g'ri keladi. Bekobod tumanida (11,2 mlrd. so'm) sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish hajmi eng past bo'lib qolmoqda.


Kichik tadbirkorlik subyektlarining sanoatdagi faoliyati



Yanvar-iyun oylarida kichik tadbirkorlik subyektlarining sanoatdagi ulushi


2021- yil yanvar-iyun oylarida sanoat ishlab chiqarishining umumiy hajmida kichik tadbirkorlikning ulushi **16,2 %** ni tashkil etdi.

2021- yil yanvar-iyun holatiga hududlar kesimida kichik tadbirkorlikning jami sanoat mahsulotidagi ulushi, % da



Hududlar kesimida kichik tadbirkorlikning jami sanoat mahsulotidagi eng yuqori ulushini Ohangaron tumani (57%), Toshkent tumani (56,0%), Yuqori Chirchiq tumani (52,7%), O'rta Chirchiq tumani (43,8%), Yangiyo'l tumani (40,9%), Oqqo'rg'on tumani (40,8%), Yangiyo'l shahar (40,6%), Quyi Chirchiq tumani (39,7%), Parkent tumani (37,2%) va Chinoz tumani (32,9%) tashkil etdi. Olmaliq sh. (1,3%) kichik tadbirkorlikning ulushi eng past bo'lib qolmoqda.

Kichik tadbirkorlik subyektlarining savdodagi faoliyati




Yanvar-iyun oylarida kichik tadbirkorlik subyektlarining savdodagi ulushi

2021- yil yanvar-iyun oylarida kichik tadbirkorlik subyektlarining chakana savdo tovar aylanmasi hajmi **8541,2** mlrd. so'mni yoki umumiy chakana savdo tovar aylanmasining **78,9 %** ini tashkil etib. 2020- yil yanvar-iyun oylariga nisbatan **4,6 %** ga ko'payishi kuzatildi.

2021- yilning yanvar- iyunida hududlar bo'yicha kichik tadbirkorlik (biznes)da chakana savdo tovar aylanmasi hajmi va o'sish sur'ati


Hududlar kesimida kichik tadbirkorlik subyektlarining eng ko'p chakana savdo tovar aylanmasi hajmi Zangiota (1522,7 mlrd.so'm) , Olmaliq shahar (668,0 mlrd.so'm), Qibray (591,8 mlrd. so'm), Angren shahar (540,5 mlrd. so'm), Yangiyo'l shahar (533,6 mlrd. so'm) Chirchiq shahar (415,1 mlrd. so'm) da qayt etildi.



■ hajmi, mlrd. so'm

● o'sish sur'ati, %

Kichik tadbirkorlik subyektlarining qurilishdagi faoliyati




2021- yil yanvar-iyun oylarida kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan amalga oshirilgan qurilish ishlari hajmi **3 153,1** milliard soʻmni yoki qurilish ishlari umumiy hajmining **80,0 %** ini tashkil etdi. Oʻsish surʻati 2020- yil yanvar-iyun oylariga nisbatan **117,2 %** ni tashkil qildi.




Yanvar-iyun oylarida kichik tadbirkorlik subyektlarining qurilishdagi ulushi

2021- yilning yanvar- iyunida hududlar boʻyicha kichik tadbirkorlik (biznes)da bajarilgan qurilish ishlari hajmi va oʻsish surʻati

Hududlar kesimida kichik tadbirkorlik subyektlarining eng koʻp bajarilgan qurilish ishlari hajmi Qibray (368,6 mlrd. soʻm), Zangiota (274,0 mlrd. soʻm), Yuqori Chirchiq (255,1 mlrd. soʻm), Parkent (177,8 mlrd. soʻm) hamda Boʻstonliq (172,5 mlrd. soʻm) tumanlarida qayd etildi.



Kichik tadbirkorlik subyektlarining xizmatlar sohasidagi faoliyati




Yanvar-iyun oylarida kichik tadbirkorlik subyektlarining jami xizmatlardagi ulushi

2021- yil yanvar-iyun oylarida kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan 6 568,6 mlrd. soʻmlik xizmatlar koʻrsatildi yoki koʻrsatilgan xizmatlar umumiy hajmining **70,8 %** ini tashkil qildi va oʻsish surʻati 2020- yil yanvar-iyun oylariga nisbatan **116,0 %** ni tashkil qildi.


Hududlar kesimida kichik tadbirkorlik subyektlarining eng koʻp xizmatlar hajmi Zangiota tumani (628,7 mlrd. soʻm), Chirchiq shahri (532,2 mlrd. soʻm), Olmaliq shahri (480,9 mlrd. soʻm), Qibray (469,2 mlrd. soʻm), Toshkent (424,5 mlrd. soʻm), Angren shahar (404,1 mlrd. soʻm) va Yangiyoʻl tumani (362,6 mlrd. soʻm) hissasiga toʻgʻri keldi.

2021- yilning yanvar- iyunida hududlar boʻyicha kichik tadbirkorlik (biznes)da xizmatlar sohasi hajmi va oʻsish surʻati




2021- yil yanvar-mart oylarida kichik tadbirkorlik subyektlarining xizmatlar sohasidagi ko'rsatkichlari


2021- yilning yanvar-iyunida kichik tadbirkorlikning ulushi, % da:




Yuk tashishda



Yuk aylanmasida



Yo'lovchi tashishda



Yo'lovchi aylanmasida

2021- yil yanvar-iyun oylarida avtomobil transportida yuk tashishning umumiy hajmida kichik tadbirkorlikning ulushi 18,7 % ni tashkil etdi. 2020- yil yanvar-iyun oylariga nisbatan o'sish sur'ati 103,8 % ni tashkil qildi.

2021- yil yanvar-iyun oylarida, avtomobil transportida yuk aylanmasining umumiy hajmida kichik tadbirkorlikning ulushi 50,2 % ni tashkil etgan bo'lib, 2020- yil yanvar-iyun oylariga nisbatan o'sish sur'ati 107,3 % ni tashkil qildi.

2021- yil yanvar-iyun oylarida, avtomobil transportida yo'lovchi tashish xizmatlarining umumiy hajmida kichik tadbirkorlikning ulushi 91,9 % ni tashkil etib, 2020- yil yanvar-iyun oylariga nisbatan o'sish sur'ati 116,7 % ni tashkil qildi.


2021- yil yanvar-iyun oylarida, avtomobil transporti yo'lovchi aylanmasining umumiy hajmida kichik tadbirkorlikning ulushi 96,9 % ni tashkil etib, 2020- yil yanvar-iyun oylariga nisbatan o'sish sur'ati 109,5 % ni tashkil qildi.

2021- yil II chorak yakunlariga ko'ra, kichik korxonalar va mikrofirmalar o'rtasida tanlanma kuzatuvlar o'tkazildi.

Ushbu so'rovnomada **1828** ta kichik korxonalar va mikrofirmalar ishtirok etdi. Ularning 471 (28,8 %) tasi iqtisodiy vaziyatni qulay deb baholadi. 1083 (59,2 %) ta sub'ektlar iqtisodiy vaziyatni qoniqarli deb baholadi. Qolgan 274 (15,0 %) ta sub'ektlar iqtisodiy vaziyatni qoniqarsiz deb baholagan.

Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha kuzatuvda ishtirok etgan kichik korxonalar va mikrofirmalarning taqsimlanishi (ulushi) qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligida – 7,8 % (142 ta), sanoatda – 19,3 % (353 ta), qurilishda – 7,2 % (132 ta), savdoda – 37,2 % (679 ta), xizmatlar sohasida – 28,6 % (522 ta)ni tashkil etdi.

2021- yil II chorak bo'yicha tanlanma kuzatuvda ishtirok etgan kichik korxonalar va mikrofirmalarning iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha taqsimlanishi, % da




- Qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi
- Sanoat
- Qurilish
- Savdo
- Xizmatlar






Kichik korxonalar va mikrofirmalarning tanlanma kuzatuvlari

2021- yil II chorak bo'yicha kuzatuvda ishtirok etgan kichik korxonalar va mikrofirmalarning hududlar bo'yicha taqsimlanishi, birlikda



2021- yil II chorak bo'yicha kuzatuvda ishtirok etgan kichik korxonalar va mikrofirmalarning hududlar bo'yicha taqsimlanishi, % da




Hududlar kesimida kichik tadbirkorlik subyektlarining eng ko'p kuzatuvda ishtirok etgan kichik korxonalar va mikrofirmalar Zangiota (208 ta), Qibray (184 ta), Toshkent (129 ta), Chirchiq shahar (124 ta), Angren shahar (111 ta) hissasiga to'g'ri keldi.

Kichik korxonalar va mikrofirmalarning tanlanma kuzatuvlari




2021- yilning II choragida kuzatuvda ishtirok etgan kichik korxonalar va mikrofirmalarning joriy davrda iqtisodiy vaziyatini baholash, % da



Kichik korxonalar va mikrofirmalarning 2021- yilning II choragida, o'tkazilgan kuzatuv natijalariga ko'ra joriy davrda iqtisodiy vaziyatni qulay deb baholagan korxonalarining iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha eng ko'p ulushi xizmatlar sohasida 29,4 % ni, qurilishda 28,0 % ni, va sanoat sohasida 25,0 %ni tashkil etdi.

Shuningdek iqtisodiy vaziyatni qoniqarli deb baholagan korxonalarining eng ko'p ulushi savdoda 62,6 % ni, qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligida 59,9 %ni, sanoatda 58,8 % ni tashkil etdi.

2021- yilning II choragida kuzatuvda ishtirok etgan kichik korxonalar va mikrofirmalarning yaqin 3 oydagi o'zgarishlar istiqboli bo'yicha iqtisodiy vaziyatini baholash, % da



2021- yilning II choragida kuzatuvda ishtirok etgan kichik korxonalar va mikrofirmalarning yaqin 3 oydagi o'zgarishlar istiqboli bo'yicha iqtisodiy vaziyatni qulay deb baholagan korxonalarining iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha eng ko'p ulushi xizmatlarda 40,7%ni, qurilish sohasida 37,9%ni, sanoat sohasida 36,1 % ni tashkil etdi.

Shuningdek yaqin 3 oydagi o'zgarishlar istiqboli bo'yicha iqtisodiy vaziyatni qoniqarli deb baholagan korxonalarining eng ko'p ulushi savdo sohasida 56,3%ni, sanoatda 52,0%ni, xizmatlar sohasida 51,8 %ni, tashkil etdi.

